Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati .....	851
<b>Murodova Mohigul Chori qizi</b> , katta o'qituvchi	
Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatida	
o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari.....	855
<b>Otajonova Maftuna Sultonmurodovna</b> , tayanch doktarant	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish .....	859
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b> , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalg etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida .....	863
<b>Sheraliyeva Saidra Azatovna</b> , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi .....	868
<b>Mansurov Saidxo'ja Kamalovich</b> , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchilagini boshqarishning hozirgi zamon muammolari.....	875
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions .....	879
<b>Ergasheva Malikakhon</b> , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
<b>Amanov Otabek Amankulovich</b>	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida .....	888
<b>Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarda maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish .....	897
<b>Saidaxmedova Nodira Ilxamovna</b> , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
<b>Bokhodir Isroilov</b> , Doctor of Economics, <b>Boburshohh Ibragimov</b> , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
<b>Raximova Shaxlo Rajapboyevna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simklarni yetishtirish va qayta ishslashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati .....	915
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b> , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish .....	922
<b>Maxmudov Anvarjon Maxmudovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili .....	930
<b>Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich</b> , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи .....	935
<b>Зайналов Жаҳонгир Расулович</b> , профессор, <b>Бердикулов Журабек</b> , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruvin hisobi,	
auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar .....	938
<b>Nosirov Ilhom Abbosovich</b> , i.f.d., <b>Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна .....	949
<b>Холбеков Расул Олимович</b> , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari .....	956
<b>Axmedova Nafisa Amriddin qizi</b>	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish .....	962
<b>Ruziyeva Shaxlo Raupovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari .....	968
<b>Maxmudova Sharifa Elmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Tijorat banklari chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvi omillar .....	972
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b> , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni	
joriy etishda uning rolini oshirish .....	978
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida) .....	983
<b>Nabiyeva Feruza Odilovna</b> , tayanch doktorant, <b>Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna</b>	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане .....	988
<b>Насиров Дилшод Фарходович</b>	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе .....	992
<b>Кодиров Бобур Абдулбори угли</b> , магистр	



# RAQAMLI BANKLAR FAOLIYATINI TAHLIL QILISH (TINKOFFBANK MISOLIDA)

Nabiyeva Feruza Odilovna  
TDIU 1-kurs tayanch doktoranti



**Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna**

TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli banklarni tadqiq qilishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida o'rganildi. Shuningdek, to'laqonli raqamli platformada faoliyat olib boruvchi Rossiyaning Tinkoffbank raqamli banki faoliyatini tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** AKT, bank, virtual bank, ekotizim, rentabellik.

**Abstract:** In this article, based on the need for research, digital banks were studied as a factor in the development of the digital economy in Uzbekistan. The activities of the digital bank Tinkoffbank of Russia, which operates on a full-fledged digital platform, were also analyzed.

**Key words:** ICT, banking, virtual banking, ecosystem, profitability.

**Аннотация:** В данной статье, исходя из необходимости исследования, были изучены цифровые банки как фактор развития цифровой экономики в Узбекистане. Также была проанализирована деятельность цифрового банка Тинькоффбанк России, который работает на полноценной цифровой платформе.

**Ключевые слова:** ИКТ, банковское дело, виртуальный банкинг, экосистема, рентабельность.

## KIRISH

Bank faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va foydalanish bank xizmatlari ommabopligrini oshirishga xizmat qiladi. "Juniper Research" tomonidan olib borilgan "Raqamli banking: banking – xizmat ko'rsatish, bozor transformatsiyasi va 2021-2026-yillar uchun bashoratlar" infografik tadqiqot Natijadariga ko'ra, 2026-yilda jahon aholisining yarmi virtual banklardan foydalanar ekan<sup>1</sup>. Buni raqamlarda ifoda-laydigan bo'lsak, 2021-yilda virtual bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2.5 milliardni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkich 4.2 milliarddan ortishi bashorat qilinmoqda. Pandemiya davri raqamli iqtisodiyot va uning ajralmas qismi bo'lgan virtual banklarning jadal rivojlanishiga trigger bo'ldi. Shuningdek, jahonning aksariyat mamlakatlarda bank xizmatlari va bank hisobvaraqlarini bankka tashrif buyurmasdan masofadan samarali boshqarish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lmoqda.

Jahon amaliyotiga ko'ra, virtual bank xizmatlari orqali bank tizimidagi muammoli holatlar uchun moliyaviy yechimlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, jahon bank tizimi mobil texnologiyalar, raqamli banklar, biometrik texnologiyalar, blokcheyn texnologiyasi va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda rivojlanmoqda. Natijada, mobil' texnologiyalar yordamida bank va mijozlar jismoniy aloqasiz, bank binosiga bormasdan pul mablag'larini boshqarishi, virtual bank xizmatlarining keskin tarzda rivojlanishi natijasida filial va shoxobchalar ochmasdan faoliyat ko'rsatuvchi raqamli banklarning ko'payishi, xavfsizlik darajasi kuchaytirilgan biometrik texnologiyalarning rivojlanishi, shaffofligi kuchli bo'lgan blokcheyn texnologiyasining ommalashishi va sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish bank operatsiyalarini amalga oshirishda vaqtini tejab samaradorlikni oshirishga erishiladi. Banklarning bunday intensiv yo'l bilan rivojlanirish, an'anaviy banklarni raqamli transformatsiya qilish, innovatsion va texnologik jihatdan rivojlanirish borasida kompleks ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

<sup>1</sup> <https://www.juniperresearch.com/press/over-half-global-population-digital-banking>



Tijorat banklarida bank xizmatlari, bank xizmatlari bozorida marketing, moliyaviy xizmatlar turlari, uyalı aloqa xizmatlari, internet tizimi, axborot tizimlari va texnologiyalariborasidagi mavjud muammolarning ayrim jihatlari va yechimlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar B. Yu. Xodiyev, A. Sh. Bekmurodov, Sh. Z. Abdullaeva, D. A. Rahmonov, I. R. To'yumuxamedov, Z. A. Umarov, G. Xusainov, X. U. Raximova, O. A. Ortikov, O. F. Aliqoriyev, M. M. Abduraxmonova, F. S. Agzamov, N. G'. Karimov, B. K. Mirzamaydinov, Z. Ya. Raxmanov, G. A. Bekmurodovalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda bayon etilgan masalalar ancha teran va mazmunli bo'lsa-da, zamon o'zgarishi va shiddatli raqamli transformatsiya, shuningdek, mahalliy banklarning xorijiy bank filiallari bilan sog'lom rafobatlasha olishiga erishish, virtual bank faoliyatini raqamli iqtisodiyotning asosiy negizi sifatida yanada takomillashtirish maqsadida doimiy izlanish va tadqiqot olib borish zaruratini ko'ndalang qo'yadi.

## TAHLIL VA NATIJADAR

Tinkoff – moliyaviy va turmush tarzi xizmatlariga asoslangan onlayn ekotizim bo'lib, uning mijozlari butun Rossiya bo'ylab 30 million kishini tashkil qiladi. Bank moliyaviy va turmush tarzi xizmatlarini ko'rsatadigan Tinkoff ekotizimini rivojlantirmoqda. Klassik bank mahsulotlaridan tashqari, unga investitsiyalar, sayohat, biznes xizmatlari, sug'urta, uyalı aloqa operatori, ko'ngilochar va ta'llim sohasiga oid xizmatlar kiradi.

Bank 2006-yilda tadbirkor Oleg Tinkov tomonidan tashkil etilgan. Bankning bosh kompaniyasi TCS Group Holding PLC London Fond birjasi va Moskva Fond birjasida sotiladi. 2021-yilning 1-choragi uchun UFRS bo'yicha TCS Group Holding PLC so'f foydasi 16,1 milliard rublni tashkil etdi, kapitalning rentabelligi – 46,1%. Tinkoff Bank Rossiya kredit kartalari bozorida 14,6% bozor ulushi bilan ikkinchi yirik portfel o'yinchisidir. Bank "Markaziy va Sharqiy Yevropadagi eng innovatsion raqamli bank" (Global Finance, 2021), dunyodagi eng yaxshi onlayn chakana bank" (Global Finance, 2018, 2020), "Rossiyadagi eng yaxshi onlayn bank (The Banker, 2020)", eng yaxshi Markaziy va Sharqiy Yevropadagi raqamli Bank" (Euromoney Awards for Excellence, 2021) kabi nominatsiyalarda e'tirof etilgan.

Tinkoff – bu jismoniy shaxslar va korxonalar uchun moliyaviy xizmatlarning to'liq spektrini birlashtirgan onlayn moliyaviy ekotizim. Tinkoff bank turmush tarzi xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi: ekotizim mijozlarga shaxsiy xarajatlarni tahlil qilish va rejalahtirish, jamg'armalarni investitsiya qilish, sodiqlik dasturlari bo'yicha bonuslar olish, sayohatlarni buyurtma berish, kino chiptalarini sotib olish, restoranlarda stollarni buyurtma qilish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni beradi.

Tinkoffning filiallari yo'q, barcha Tinkoff xizmatlari mobil ilovalar va tinkoff.ru veb-sayti orqali amalga oshiriladi. Tinkoff tarmog'i xizmatlarni mamlakatning istalgan mintaqasidagi mijozlarga eng qisqa vaqt ichida, onlayn kanallarda va aloqa markazida yetkazib berishga imkon beradi, mijozlar barcha kerakli maslahatlar va xizmatlarni 24/7 oladi. Tinkoff AI bank strategiyasini amalga oshiradi va sun'iy intellekt hamda mashinani o'rganish texnologiyalaridan faol foydalanadi. Misol uchun, Oleg nomli ovozli yordamchi suhbat xonalarida mijozlarga xizmat ko'rsatish so'rovlaring 40% dan ortig'ini bank xodimlari ishtiokisiz qayta ishlaydi va aloqa markazida mijozlarning savollarini o'rтacha 40 soniya ichida hal qiladi.

Tinkoffning barcha mahsulotlari va ichki IT tizimlarining aksariyati kompaniyaning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan. Shtab xodimlarining 70 foizini IT mutaxassislari tashkil etadi.

Ekotizimning yadrosi 2006-yilda tashkil etilgan Tinkoff Bank bo'lib, dunyodagi eng yirik mustaqil onlayn banklardan biridir. Tinkoff faol mijozlar soni bo'yicha mamlakatdagi uchinchi yirik bankka aylandi va Rossiya banki tomonidan 13 ta tizimli muhim kredit tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan.

TCS Group Holding PLC – bu IT kompaniyasi, Tinkoff Bank, Tinkoff Mobile virtual uyali aloqa operatori, Tinkoff Insurance, Tinkoff Capital boshqaruv kompaniyasi, Rossianing yirik shaharlardagi rivojlanish markazlari tarmog'i – "Tinkoff Development Center", Tinkoff Investments, biznes uchun xizmatlar – Tinkoff Business, onlayn sayyoqlik agentligi – Tinkoff Travel, shuningdek, "Tinkoff Education" – notijorat tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Guruh mijozlarga moliyaviy va turmush tarzi xizmatlarini ko'rsatadigan Tinkoff ekotizimini rivojlantirmoqda.


Shunisi e'tiborliki, Tinkoff to'lov platformasi 2021-yil fevral oyida ishga tushirildi va Tinkoff ekotizimining mavjud to'lov texnologiyalari va yangi yechimlar, shu jumladan, Rossiya onlayn to'lovlar bozorining yetakchilaridan biri bo'lgan bulutli to'lovlar xizmatlarini birlashtirdi. Har qanday kompaniya Tinkoffda joriy hisob raqamiga ega bo'lishidan qat'i nazar, Tinkoff kassa registrining yechimlaridan foydalanishi mumkin.

Rossiyada onlayn-banking rivojlanishining butun tarixi birinchi navbatda Tinkoff Bank bilan bog'liq bo'lgan yagona to'laqonli onlayn-bankdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Bank qanchalik ahamiyatlari ekanligini va nima uchun ko'plab klassik banklar Tinkoff yondashuvini qarzga olishlari va uni o'z konsepsiyalariga moslashtirishlarini to'liq tushunish uchun biz nafaqat biznes yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini, balki bankning so'ngi yillarda erishgan moliyaviy ko'rsatkichlarini ham o'rganishimiz kerak. Bank muvaffaqiyati qanday shakllanganligini to'liq tushunish uchun uning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish kerak:

- 2006-yil – Himmashbank sotib olindi va uning nomi Tinkoff Credit Systems deb o'zgartirildi;
- 2007-yil – Goldman Sachs xalqaro investitsiya bankining 10% ulushi sotib olindi;



- 2008-yil – TKS internet-banki ishga tushirildi;
- 2009-yil – depozitlarni qabul qilish, debet kartalarini chiqarish va yo'llanma dasturi ishga tushirildi;
- 2011-yil – Asosiy operatsion tizimlar (IOS, Android) uchun mobil bank joriy etildi;
- 2013-yil – London fond birjasida IPO – birinchi bor ommaviy qimmatli qog'ozlari chiqarildi va bankning bahosi 3,2 mlrd deb baholandi.



**1-rasm:** Tinkoff ekosistemasi tarkibidagi korxonalar


Boshida Tinkoff Bank ham o'z bankomatlariga ega emas edi, bu ham potensial mijozlarga barcha shubhalarni yo'q qilishga imkon bermadi. Ko'pchilik bank mayjudligiga ishonmadni, shuningdek, filiallari va bankomatlar bo'limgan bankka ishonishdan qo'rqishdi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday qadam juda xavfli edi. Bankning asosiy mahsuloti kredit kartalari bo'lib, jarima va komissiyani to'lamaslik uchun qarzni o'z vaqtida yopish kerak edi, ofis va bankomatarning yo'qligi mijozlarning ishonch darajasini oshirmadi. Shu sababli, Tinkoff Bank taniqli banklar yoki pul o'tkazmalari tizimi bilan hamkorlikka kirishishi kerak edi, shuning uchun Svyaznoy, QiWI va Euroset bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi, shuningdek, boshqa bank kartasidan maxsus dastur yoki qo'shimcha ilovalar va saytlar orqali komissiyasiz to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazish imkoniyatini yaratди. Bunday mashhur hamkorlar tufayli bank muvaffaqiyat qozona boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, uchinchi tomon bankomatlari yordamida bir vaqtning o'zida 3000 rubldan komissiyasiz kartalardan pul mablag'larini olish mumkin edi. Bundan tashqari, Tinkoff Bank rahbarlari o'zlarining bankomatlariga qarshi emasliklarini, lekin ular maqbul narxga ega bo'lishi kerak, shuningdek, bankning funksionallik talablariga javob berishi kerak ekanligini bir necha bor ta'kidladilar. Bunday lahza 2017-yilning o'rtalarida, birinchi aqlli bankomat o'rnatalganda sodir bo'ldi. Ushbu uskuna yordamida rubl, yevro va dollarni katta miqdorda yechib olish, shuningdek, kartani ushbu valyutalarda to'ldirish mumkin edi. Barcha bankomatlar NFC datchiklari bilan jihozlangan bo'lib, bu telefondagi ilova orqali yoki oddiygina kartaga tegish orqali kartani o'qish imkonini berdi. Shuningdek, QR kodni o'qish moslamasi mayjudligi sababli bank qiziqarli ishlanmani – QR kod yordamida mablag'larini yechib olishni joriy qildi. Bu funksiya Tinkoff Bank bankomatlari orqali ma'lum naqd pul miqdorini yechib olish imkonini beradi va bu kod do'stingizga yuborilishi mumkin, shunda u o'zi pul yechib olishi mumkin.

Tinkoff Bank Rossiya banklari orasida birinchi bo'lib NFC-dan foydalangan holda to'lovni yo'lga qo'ydi va bu qo'shimcha va uchinchi tomon ilovalari (Samsung Pay, Google Pay va Apple Pay) orqali emas, balki telefonda bank ilovasidan foydalangan holda sodir bo'ldi. Raqobatchilar tomonidan shunga o'xshash yechim ishga tushirilganda, Tinkoff mijozlari allaqachon ushbu yechimdan kuchli va asosiy foydalanishayotgan edi.



Bu yana bir bor bankning bir joyda turmasligini va mijozlarga haqiqatan ham zarur bo'lgan narsalarni doimiy ravishda ishlab chiqish va amalga oshirishga harakat qilishini yana bir bor ta'kidlaydi. 2019-yilda Tinkoffning barcha ilovalar bo'yicha jamlangan ko'rsatkichlari 1,8 va 5,6 million foydalanuvchini, 10,3 million faol mijozlarga ega bo'lgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 1,3 va 3,7 millionni tashkil etdi. Ya'ni foydalanuvchilarning 17,5% har kuni kamida bir marta, oyiga 50% dan ko'prog'i ilovaga tashrif buyurishi ma'lum bo'ldi, bu juda yuqori, chunki bu sug'urta kompaniyasining mijozlari, investitsiya arizasi, kichik va o'rta -katta korxonalar, buxgalteriya hisobi va boshqa faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

2019-yilda bank Global Finance tomonidan nafaqat chakana bank sifatida, balki axborot xavfsizligi va firibgarlikka qarshi kurash sohasida ham dunyoning eng yaxshi onlayn-banki deb topildi. Bu ofissiz zamonaviy banklar, birinchi navbatda, mijozlar mablag'larining xavfsizligi haqida qayg'uradi, degan tezisni yana bir bor tasdiqlaydi.



**2-rasm:** Tinkoffbankning 2016-2019 – yillardagi foydasi, milliard rublda

2-rasmdan ko'rinish turibdiki, so'nggi 4 yil davomida bank barqaror daromadli faoliyatni namoyish etmoqda, maksimal natija 2019-yilda ko'rsatilgan va taxminan 30 milliard rublni tashkil etgan, bu Rossiya Federatsiyasining barcha banklari orasida o'ninchisi ko'rsatkichdir. Agar aktivlarning rentabellik darajasiga murojaat qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 5,63% ni tashkil etadi, bu TOP-20 banklari bilan taqqoslaganda eng yaxshisidir. Bu bankning aylanma aktivlardan samarali foydalanayotganligini tasdiqlaydi, bu esa aktivlarni shakllantirishning muvaffaqiyatlari siyosatidan dalolat beradi, garchi bankda ko'p miqdorda yuqori likvidli mablag'lar mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha minimal foya keltiradi.

2020-yil may oyida bank mijozlarga shartnoma tuzmasdan va bank vakili bilan uchrashmasdan virtual karta chiqarish imkoniyatini berdi. Bu mijozlarga ikkita variantni taqdim etish imkonini beradi:

1. Chiqarilgan kartani olishdan oldin uni Google Pay, Samsung Pay va Apple Pay ga qo'shish orqali foydalaning.
2. Shartnomasiz virtual kartani chiqarish.

Aynan bu vaqtida raqobatchilar orasida bunday yechim bo'lmaganligi sababli bu yangilik bankning pandemiya va boshqa cheklolvar ta'sirida yuzaga kelgan qiyin hayotiy vaziyatlarga qanchalik tez moslasha olishini yana bir bor ko'rsatadi.

## XULOSA

Yuqoridagilarning barchasini sarhisob qilsak, 100 foiz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bugungi kunda bank kredit kartalari va mobil ilovalar segmentida so'zsiz yetakchi hisoblanadi. Yirik davlat va kichik xususiy banklarning ko'plab mijozlari, agar hammasi bo'lmasa ham, ko'p muammolarni masofadan hal qilish imkoniyatiga ega. Illoving ishlab chiqilishi tufayli bugungi kunda mijoz kartani olish, hisobni bloklash, pul mablag'larini o'tkazish va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish uchun filialga borishi shart emas. Smartfondan mijoz va bank o'tasidagi bog'lovchi sifatida foydalanish qulayligi allaqachon ko'plab banklar tomonidan tasdiqlangan. Tinkoff Bank ofissiz rivojlanish orqali bo'sh mablag'larni o'zida mavjud bo'lmagan filiallar va ofislarning hududlarini saqlashga emas, balki mijozlar uchun yangi hududlar va mahsulotlarni ishlab chiqishga investitsiya qilishi mumkin. Bankning joriy foydasi va rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda, bank muvaffaqiyatining



kaliti aynan mijozga alohida yondashuvda va uning moliya instituti bilan o'zaro aloqada bo'lish tajribasida, deb taxmin qilish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильюкевич А. Н., Костюк Я. С., Пастарнак К. Г. Информационные технологии в банковской сфере. Электронная библиотека БГУ. 2016. –204-206 с. [https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/153739/1/iluykevich\\_kostyuk\\_pastarnak\\_sbornik16.pda](https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/153739/1/iluykevich_kostyuk_pastarnak_sbornik16.pda)
2. Matej Marinc. Banks and information technology: complexity, flexibility, and interconnectedness, 2011, <https://www.researchgate.net/publication/266465168>
3. Rahia S. et al. Integration of unified theory of acceptance and use of technology in internet banking adoption setting: Evidence from Pakistan // Technology in society, Vol. 58 (2019), –101120, 2 p.
4. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia – social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. – 13-16 p.
5. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of finance and data science, Vol. 5 (2019), 156-172 р.
6. Дубинин М. В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.
7. Vadlamani R. Introduction to banking technology and management // Institute for development and research in banking technology. May 2011. DOI: 10.4018/978-1-59904-675-4.ch001
8. Тарасова В. И. Межрегиональный центр банковских и финансовых технологий / Банковские и финансовые технологии для реального сектора экономики: сборник статей под ред. – М. 2000. – 134 с.
9. Галаган А. А. От купца до банкира: история предпринимательства российского. – М.: Ось-89, 1997. – 167 с.
10. Дроздов В. В., Воробьева Ю. Ф. Банкирский промысел в докапиталистический период/ История и историография экономики: сборник статей под ред. – М.: “Экономика”, 2003. – 69 с.
11. Масленченков Ю. С. Технология и организация работы банка: теория и практика. – М.: “ДЕКА”, 1998. – 431 с.
12. Садков В. Г., Овчинникова О. П. Банковские системы развитых стран: история, современность, перспективы. –М.: “Прогресс”, 2001. – 141 с.
13. Тимошенко Л. А. Разработка новых банковских продуктов и воздействие на конкурентоспособность и надежность банка. – М.: “Экон-Информ”, 2004. – 13 с.
14. Ashta A. Biot-Paquerot G. FinTech evolution: Strategic value management issues in a fast changing industry // Briefings in entrepreneurial finance. Volume 27, Issue 4. –July 2018. – 301-311 p.
15. Sharma A., Kansal A. Technological innovations in banking sector: impact, behavior and services // International journal of information & computation technology. Volume 4, Number 9, 2014. – 886 p.
16. Cavus N. Chingoka D. N. C. Information technology in the banking sector: Review of mobile banking // Global journal of information technology. Number 5(2), 2015. – 62-70 p.
17. Cano M. D., Domenech-Asensi G. A security energy-efficient m-banking application for mobile devices // The journal of systems and software. Number 84, 2011. – 1899-1909 p.
18. Dahlberg T., Mallat N., Ondrus J., Zmijewska A. Past, present and future of mobile payments research: a literature review // Electronic commerce research and applications, Number 7(2), 2008. – 165-181 p.
19. Kemp R. Mobile payments: current and emerging regulatory and contracting issues // Electronic commerce research and applications, Number 7(2), 2008. – 165-181 p.
20. Shaikh A. A., Karjaluoto H. Making the most of information technology and systems usage: a literature review, framework and future research agenda // Computers in human behaviour, Number 40, 2015. – 541-566 p.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.